

NIZOMIY ARUZIY SAMARQANDIY VA UNING DAVRIDAGI IJTIMOIY-MADANIY HAYOT

Feruza Nizamova

International Islamic Academy, Of Uzbekistan, Phd,
Senior Lecturer, Uzbek and foreign languages department,
A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan. f.nizamova@iiau.uz

Feruza Nizamova

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “O‘zbek va xorijiy tillar”
kafedrasi dosenti, filologiya fanlari nomzodi Tel.: 909047098

Annotation

Bugungi kunda jamiyatni ma’naviy yuksaklikka ko‘tarish masalasi O‘zbekiston Respublikasi siyosatining ham muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Qadimiy axloqiy-ta’limiy ruhdagi merosimizga milliy mustaqillik mafkurasi asosida yangicha, xolis va sof ilmiy munosabat bu sohada ham yangi yo‘nalishlardagi ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy izlanishlarni taqozo etadi. Shu maqsadni ko‘zlagan xolda ushbu maqola Nizomiy Aruziy Samarqandiyning ijodiga va o‘sha davr ijtimoiy madaniy hayotiga bag‘ishlanadi. Adib ijodi taraqqiyotida Nizomiy Samarqandiyning o‘rni kabi masalalarda imkon qadar atroflicha fikr mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada shoir yashab ijod etgan adabiy muhit, ularning adib ijodidagi ahamiyati va sharq adabiyotshunosligini rivojlantirishdagi o‘rnini belgilashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy hayot, ma’naviyat, ijtimoiy muhit, adabiyot, ijod, asar.

Zamonasining yetuk shoiri va olimi Nizomiy Aruziy Samarqandda tug‘ilgan. O‘sha paytlar bu shahar saljuqiylar tasarrufida bo‘lgan. Otasi bir vaqtlar saljuqiy Alp Arslon xizmatida bo‘lgan. Nizomiy Aruziy Samarqandiy noma’lum sabablarga ko‘ra, Bomiyon va G‘ur viloyatlarini o‘z tasarrufida saqlab turgan g‘uriy hukmdorlar saroyidan panoh topgan.

Muallif «Majma’ un-navodir» asarida 1145-1163 yillar orasida G‘ur shahzodalaridan Shamsiddin Muhammadning dabiri – kotibi bo‘lganini yozadi.

G‘uriylar sulolasining boshlanishi g‘aznaviylar va saljuqiylarning uzoq davom etgan kurashi natijasida yuzaga kelgan. Bu kurash natijasida Bomiyon bilan Hirot oralig‘da joylashgan «Hazor chashma» degan yerlarida yashovchi shansob qabilalari kuchaya boshladи. G‘aznaviylar kirib kelgunga qadar, bu o‘lkalarga hech bir yirik davlat ko‘z tikmagan edi. Bu yerda yashovchi qabilalarning boshlig‘i Malik Suriy degan kishi bo‘lgan. Malik Suriyning o‘g‘li Amir Muhammad g‘aznaviylarga bir bo‘ysunib, bir qarshi chiqib yurgan. Sulton Mahmud G‘aznaviy 401/1010 yilda

g‘urlarga qarshi yurish boshlab, faqat 405/1015 yildagina G‘ur viloyatini batamom egallashga muvaffaq bo‘lgan. Natijada bu yerkarni boshqarishni Amir Muhammadning katta o‘g‘li Amir Abu Aliga olib bergen. Orada Sulton Mahmud vafot etadi. G‘ur xonlari esa, vaqt-i-vaqt bilan g‘aznaviylargacha itoat etishdan bo‘yin tovlab turardilar. Ba’zilari butunlay mustaqil bo‘lish harakatiga tushib qoldilar. G‘aznaviyalar taxtiga Sulton Mas’udning o‘tirishi bilan g‘uriylar tomonida Malik Abbas Amir amakisi Abu Alidan taxtni zo‘rlik bilan tortib oladi va Amir Abu Ali zindonda o‘lib ketadi. Malik Abbas zolimligi va yovuzligi bilan dovrug‘ qozondi. G‘aznaviylardan Sulton Mas’udning o‘g‘li Ibrohim g‘uriylar taxtidan Malik Abbasni olib tashlab, o‘rniga uning o‘g‘li Amir Muhammadni qo‘yadi.

XII asr bo‘sag‘asida g‘aznaviy Sulton Mas’ud III G‘urni boshqarishni Amir Muhammadning nabirasi Malik Izziddingga topshirdi. Shu paytdan boshlab G‘ur maliklari g‘aznaviyalar vassallaridan mustaqil hukmdorlarga aylana boshladilar. Manbalarda uni «G‘urning dastlabki ulug‘ hukmdori» deb ataganlar. Nizomiy Aruziy Samarqandiy zamonasidagi hukmdor Alouddin Husayn (1149-1156) ana shu Malik Izziddinning uchinchini o‘g‘li edi.

Shansobiya maliklarini manbalarda «oli shansob» (shansob nasli ma’nosida – arab.) ham deyishgan. Ularning ajdodi Shansob – Ali ibn Abu Tolibning zamondoshi bo‘lgan. Nizomiy Aruziy o‘z asarini 1156-1157-yillari Bomiyonda, shansobiylarning kichik hukmdorlari huzurida bitgan. Shansobiylar ikki tabaqaga bo‘linardilar. Ulardan biri «Majma’ un-navodir» yozilgan davrda hokimiyat tepasida bo‘lgan Alovuddin Husayn G‘ur maliklarining poytaxti Feruzko‘hda hukmronlik qilgan. U maliklarning eng mashhuri bo‘lib, Jahonso‘z laqabini olgan edi. Nizomiy o‘z asarida uni bir necha bor tilga oladi va hikoyatlar mazmunidan asar yozilayotgan davrda uning hayot ekani anglashiladi. 1152-yili Alovuddin Hirot yaqinida Sulton Sanjar (1118–1158) bilan bo‘lgan jangda yengilib, asir ham tushib qolgan va tovon to‘lash hisobiga qutulib ketgan. Ana shu jangda Nizomiy Aruziy ham Alovuddin Husayn bilan hamroh bo‘lgan ekan (Munajjiimlar haqidagi 9-hikoyat).

Alouddin Husayn 1151 yili («Majma’ un-navodir»ning yozilishidan besh-olti yil avval) G‘azni shahriga o‘t qo‘ygani uchun Jahonso‘z laqabini olgan edi. Nizomiy Aruziy bu voqeanning tafsilotini keltirmagan. Alovuddin Husaynning G‘azniga yurishi va unga o‘t qo‘yishi tafsilotlari Nizomiydan keyinroq o‘tgan tarixchi Minhojiddin Juzjoniy asarida bayon etilgan. Nizomiy Aruziyga zamondosh tarixchi Sadriddin Ali al-Husayniyning «Axbor ad-davlat as-saljuqiya» asarida ham bu voqeal eslab o‘tiladi. Voqeal shunday bo‘lgan ekan:

Saljuqiylargacha tobe G‘aznaviy hukmdorlaridan Bahromshoh (1118-1152) davrida G‘azni birmuncha obod shaharlardan edi. Shoiru fozillardan Sanoiy, So‘zaniy, Abulmaoliy Nasrullo shu yerda yashab ijod etgan. G‘uriy hukmdorlar Bahromshoh

bilan yaqin munosabatda edilar. Alovuddinning akasi Qutbiddin inilari bilan arazlashgan, G‘azniga ketib, Bahromshoh (1118-1152) saroyida yashardi. Nomunosib ishlar bilan shug‘ullangani uchun Bahromshoh uni qatl etadi. Qutbiddinning ukasi Sayfuddin Suriy o‘ch olish niyatida katta qo‘sish bilan G‘azniga yuradi va shaharni egallaydi. Bahromshoh Hindiston tomon qochadi. Ammo tezda qo‘sish bilan qaytib kelib, Sayfuddinni qo‘lga tushiradi va uni vaziri Musaviy bilan birga dorga ostiradi. Bundan g‘azablangan Alovuddin Husayn G‘azniga lashkar tortadi. Qattiq jangda Bahromshoh qo‘sishlari tor-mor keltiriladi. Bahromning o‘zi Lahorga qochib ketadi. Alovuddin shaharga o‘t qo‘yishni va hech kimga shafqat qilmaslikni buyuradi. Hikoya qilinishicha, shaharni shu darajada tutun qoplagan ediki, kunduz qorong‘u tunga aylangan. Tunlari esa G‘azni shahri olov qurshovida qolgan. Yetti kun davomida G‘aznining barcha erkaklari o‘ldirilib, xotin-qiz va bolalar asir olindi. Alovuddin g‘aznaviylardan Sulton Mahmud, Sulton Mas’ud, Sulton Ibrohimdan bo‘lak barcha qabrlarni ostin-ustin qildirib tashlaydi. Tarixchi Sadreddin Ali al-Husayniyning guvohlik berishicha, yong‘in paytida mashhur ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sinoning 1136-yili Isfahondan talab olib ketilgan va G‘aznida saqlanayotgan ulkan kutubxonasi ham kulga aylangan. Alovuddinning o‘zi voqeа paytida bir hafta davomida saroyda kayfu-safo bilan mashg‘ul bo‘lgan. Sayfuddin va uning vaziri Sayyid Majdiddin Musaviy, Qutbiddin xoklarini sandiqlarga joylab, yetti kun davomida qo‘smini bilan motam tutadi. Yetti kun xatmi Qur’on qildiradi. Akalari xoki solingan sandiqlarni mahofalarga joylashtirib, G‘aznidan Dovar va Bustga qarab yo‘lga chiqadi. Bustga yetgach, Sulton Mahmud qurdirgan va go‘zallikda olamda tengsiz barcha saroyu binolarni vayron qildiradi. Mahmud avlodiga qarashli barcha viloyatlarni xarob etadi. G‘ur shahriga yetib kelib, akalari hokini ajdodlari mozorida dafn etadi. G‘azni tuprog‘idan bir xaltadan orqalatib, haydab keltirilgan bir to‘da sayyidlarni Feruzko‘hga – poytaxtiga yetib kelgach, Sayyid Musaviy xuni evaziga o‘ldirtiradi. Qonlariga o‘zlarini keltirgan tuproqni qorishtirib, loyidan Feruzko‘h tog‘larida bir necha minora quzdirdi.

Xullas, bu g‘aznaviyalar bilan g‘uriylarning so‘nggi to‘qnashuvi edi. Saljuqiylar esa borgan sayin zaiflasha borayotgan edilar. Bu esa g‘uriylar davlatining mustahkamlanib, hududlari kengayib borishiga imkon berdi. Nizomiy Aruziy Samarqandiy ana shunday ijtimoiy-siyosiy sharoitda yashab ijod etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдулаев И., Ҳикматулаев Х. Самарқандлик олимлар. – Т.: 1969.
2. Бертельс Е. Э. Избр. Труды, т.1, история персидско-таджикской литературы. – М., 1960.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. 55 – 60-бетлар.

4. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т., 1981.
5. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
6. Кайковус. Қобуснома, – Т.: Ўқитувчи, 1967.
7. М.Баҳор, Сабкшеноси. 2-жилд, 298-318
8. Мавлоно Фаҳриддин Алий Сафи. Латоиф-ут-тавоиф. – Душанбе: нашриётэ «Ирфон», 1968.
9. Низами Арузи Самарқандий. Собрание редкостей или четыре беседы. – Москва: Изд.Восточной литературы, 1963. – 174 б.
10. Низомий Арузий Самарқандий. Нодир ҳикоятлар. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
11. Низомий Арузий Самарқандий. Чор мақола. // Дурданаҳое наср. – Душанбе: Ирфон, 1987. 306 – 341.
12. Саъдий. Гулистон. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968.
13. Фанихўжаева Н. «Хамса» ҳикоятлари. – Т.: Фан, 1986.